

Zo'ravonlik illati va zillati

2018-yil 14-dekabrda institutning 7-ma'ruzalar zalida (QSXET va QXM fakultetlarining talabalari) "Oilada zo'ravonlikning oldini olish" mavzusida umumiy yig'ilish bo'lib o'tdi. Ushbu yig'ilishda Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani 2-IIB boshlig'i podpolkovnik Kamoliddin Daminov va 2-IIB huquqbuzarlik profilaktikasi bo'linmasi boshlig'i katta leytenant Javohir Yakubovlar qatnashib hozirgi kunda oilalarda sodir etilayotgan zo'ravonliklar, ayollarning huquqlarini poymol etish, ayniqsa yosh oilalar o'rtasidagi janjallarni to'xtovsiz davom etishi, o'z uyining zulm qurbonlari bo'lgan ayollar to'g'risida ma'lumot berib o'tdilar. Shundan so'ng talabalar bilan birgalikda savol-javoblar bo'lib o'tdi.



Institut xotin-qizlar kengashining raisi Zulfiya Hafizova axboroti

Istitut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov